




ALEKSANDR FAYNBERGNING “OY MANZARASI” SHE'RIDA TABIAT TASVIRI VA FALSAFIY MUSHOHADA

Abdishukurova Jasmina Dilshod qizi

jasminaabdishukurova2108gmail.com

XORIJIY til va adabiyot fakulteti, O'zbekiston davlat jahon tillari

universiteti, Toshkent, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18980956>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-mart 2026 yil
Ma'qullandi: 4-mart 2026 yil
Nashr qilindi: 12-mart 2026 yil

KEY WORDS

Aleksandr Faynberg, lirika, tabiat tasviri, obraz, metafora, epitet, badiiy tahlil.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Aleksandr Faynbergning “Oy manzarasi” she’ri badiiy tahlil qilinadi. Asarda tabiat manzaralari orqali inson ruhiyati, tafakkur jarayoni hamda falsafiy mushohadalar ifodalanishi yoritiladi. She’rda qo’llangan obrazlar tizimi, metafora, epitet va tasviriy vositalar tahlil qilinib, shoirning poetik mahorati ochib beriladi.

Aleksandr Faynberg XX asrning mashhur shoirlaridan biri hisoblanadi. U Toshkentda tug’ilgan va butun faoliyatini asosan O’zbekistonda olib borgan.

Uning she’rlarida, asosan, falsafiy qarashlar, hissiyotlar, tuyg’ular, ayriliq, vaqt, xotira kabi mavzular yetakchilik qiladi.

Shoir yozgan she’rlar samimiyligi va tasviriyligi bilan ko’plab adabiyot ixlosmandlarini jalb qilib kelmoqda.

Ushbu maqolada shoirning she’riyati, xususan, uning mazkur she’rida ifodalangan badiiy g’oya, obrazlar va poetik vositalar tahlil qilinadi.

Darhaqiqat, Faynberg lirikasida tabiat tasviri va falsafiy mushohada muhim o’rin egallaydi.

She’rlaridagi kechinmalar, voqea-hodisalar tabiatga uzviy bog’liq holda yoki tashbehlar orqali ifodalanadi.

Shu kabi ijod namunasidan biri bu “Oy manzarasi” she’ridir. Ushbu she’rda insonning ichki kechinmalari

tabiat manzaralari orqali tasvirlanganligini ko’rish mumkin.

OY MANZARASI

Tungi osmon chetida turib
Baliqchi jim, yolg’iz o’y surar.
Yelkasida yoyilar to’ri,
Oy nurida borliq yarqirar.

Osiladi yulduzlar to’rga,
Kumush qayiq, hovuch – hovuch zar.
Eshkaklarni ko’mgancha nurga
Mavjlanadi parsimon qumlar.

Satrlarni o’qish davomida she’rda tungi tabiat manzarasi keltirilganini sezish mumkin. Shoir nega aynan osmon qorong’ulikka cho’kkan paytni tashbeh sifatida foydalanayotganini ikki xil

tushunish mumkin: biri – lirik qahramon qalbidan og'riqli kechinmalar o'tyapti, ikkinchisi – osudalik va halovat tungi sokin osmonga o'xshatilyapti.

Keyingi misrada baliqchi obrazi keltirilgan bo'lib, u she'rning asosiy qahramoni hisoblanadi. Shu osuda bir oydin kechada baliqchi o'ychan o'tirarkan, xayolida o'ylar keskin o'ynayotgani uning o'ylar bilan band ekanligini ko'rsatadi. Bu orqali shoir sukunat va ichki kechinmalar o'rtasidagi kontrastni yaratadi.

Baliqchi to'rini yoyishi uning o'z hayotini anglashga urinishi, tafakkur jarayonini boshlashi ramzi sifatida talqin qilinishi mumkin. "Oy nurida borliq yarqirar" satri esa inson tafakkur qilishni boshlaganida hayotidagi voqealarni yanada aniqroq anglay boshlashini bildiradi.

She'rning keyingi misralarida yulduzlarning to'rga osilishi badiiy obraz orqali ifodalanadi. Bu holat qahramonning hayot go'zalligini anglab yetishi va shukronalik tuyg'ularini his qilayotganini ko'rsatadi. "Kumush qayiq" va "hovuch-hovuch zar" kabi iboralar esa baxt, go'zallik va hayot ne'matlarining ramziy ifodasi sifatida talqin qilinadi.

"Eshkaklarni ko'mgancha nurga, mavjlanadi parsimon qumlar" satrlarida esa shoir tabiat manzarasini nihoyatda poetik tarzda tasvirlaydi. Oy nuri ostida yaltirab ko'rinayotgan qumlar go'yo oltin tangalarga o'xshatiladi. Bu esa she'rning romantik va estetik ohangini yanada kuchaytiradi.

Asardagi obrazlar tizimiga e'tibor qaratilsa, baliqchi obrazi yolg'izlik, tafakkur va tabiat bilan uyg'unlikni ifodalaydi. Oy obrazi esa sokinlik va romantik kayfiyatni aks ettiradi. Yulduzlar va suv manzarasi esa she'rning poetik tasvirini boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Faynberg "Oy manzarasi" she'rida tabiat manzaralari orqali inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini badiiy tarzda ochib beradi. She'r sodda shaklda yozilgan bo'lsa-da, unda chuqur falsafiy mazmun mujassam.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Faynberg A. Tanlangan asarlar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2009.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: Akademnashr.
3. Yo'ldoshev Q. Badiiy matn tahlili asoslari. Toshkent: Fan.
4. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'qituvchi.
5. Saidov S. Poetika va badiiy tasvir vositalari. Toshkent: Tafakkur.